



THE RELATIONSHIP BETWEEN PHILOSOPHICAL INTELLECT AND SYNERGETIC THINKING

Jafar Shomirzayevich Mustafayev

University of Economics and Pedagogy, Samarkand Campus

Samarkand State Pedagogical Institute

jafar.mustafayev.84@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Synergistic thinking, artificial intelligence, random oscillation, disproportion, approach, dialectics, laws, scientific knowledge, complex system, spiritual world, alternative, linearity and nonlinearity, universal, adequate.

Received: 05.04.26

Accepted: 06.04.26

Published: 07.04.26

Abstract: This article discusses the formation of philosophical intelligence, the interrelation of dialectics and synergetic, the essence of the substantial concept of "energy" that unites dialectics and synergetic, the current theory of the study of nonlinear phenomena, a new interpretation of the world, and complex systemic processes in the natural and socio-economic sphere. In the interdisciplinary methodology, the linearity and nonlinearity of both simple and complex views of the world are analyzed as a manifestation of the linear approach in the formation of philosophical intelligence and synergetic thinking in social processes. It also covers the issues of human imagination moving beyond linear intuition and a linear worldview.

FALSAFIY INTELLEKT VA SINERGETIK TAFAKKUR NISBATI

Jafar Shomirzayevich Mustafayev

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

Samarqand davlat pedagogika instituti

jafar.mustafayev.84@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sinergetik tafakkur, sun'iy intellekt, tasodifiy tebranish, nomutanosiblik, yondashuv, dialektika, qonunlar, ilmiy bilim, murakkab tizim, ma'naviy olam, muqobil variant, chiziqlilik va nochiziqlik, universal, adekvat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada falsafiy intellektni shakllantirish, dialektika va sinergetikaning o'zaro aloqadorligi, dialektika va sinergetikani birlashtiruvchi substansional tushuncha "energiya" tushunchasini mohiyati haqida hozirgi zamon nazariyasi, nochiziqli

hodisalarni o'rganish, dunyoni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlar to'g'risida fikr yuritiladi. Fanlararo metodologiyada olamning ham sodda, ham murakkab manzarasining chiziqlilik va nochiziqlilik ijtimoiy jarayonlarning falsafiy intellektni shakllantirish va sinergetik tafakkurdagi chizikli yondashuvni namoyon bo'lishi sifatida tahlil etiladi. Shuningdek, inson tasavvurini chizikli intuisiya va chizikli dunyoni ko'rish doirasidan chetga chiqish masalalari yoritiladi.

СООТНОШЕНИЕ ФИЛОСОФСКОГО ИНТЕЛЛЕКТА И СИНЕРГЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Джафар Шомирзаевич Мустафаев

Университет экономики и педагогики, Самаркандский кампус,

Самаркандский государственный педагогический институт

jafar.mustafayev.84@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: синергетическое мышление, искусственный интеллект, случайные колебания, диспропорция, подход, диалектика, законы, научное знание, сложная система, духовный мир, альтернатива, линейность и нелинейность, универсальный, адекватный.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования философского интеллекта, взаимосвязь диалектики и синергетики, сущность субстанциального понятия «энергии», объединяющего диалектику и синергетику, современная теория изучения нелинейных явлений, новая интерпретация мира и сложные системные процессы в природной и социально-экономической сферах. В междисциплинарной методологии анализируются линейность и нелинейность как простых, так и сложных представлений о мире как проявление линейного подхода в формировании философского интеллекта и синергетического мышления в социальных процессах. Также рассматриваются вопросы выхода человеческого воображения за пределы линейной интуиции и линейного мировоззрения.

Kirish. Insoniyat sinergetik tafakkur uslubidan qadimdan ozuqa olib, foydalanib kelganligini ma'naviy merosni chuqur tadrijiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish chog'ida guvohi bo'lamiz. Antik davrda sinergetik tafakkur deb atalmagan, ammo, sinergetikaning tarkibida o'zini-o'zi rivojlantirish, xaosdgi entropiyani mazmuni, ochiq tizimdagi energiyani

to'ldirish, nohiziqli tafakkur tarzi, murakkablikning zamirini tahlil etish, makon va zamonda jarayonlarning takrorlanmasligini izohlash, sistema va element dialektikasini yangicha izohlash kabi murakkab falsafiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunday murakkabliklarni yechish va o'rganish zaruriyati esa insoniyatni haqiqatdan ham insoniyatning tadqiqot imkoniyatlarini kengaytirishga va murakkab hisoblangan obyektlarni tadqiq etishga xizmat qiladi. O'tgan asrning 60-yillariga kelib nohiziqli ya'ni, muvozanatsiz nazariyalar va metodologiyalarni vujudga kelgan bolsa, dastavval sinergetikaning qonuniyatlaridan tabiatshunoslar va fizik olimlar foydalanganlar.

2000 yillardan so'ng turli fanlarda nohiziqli hodisalar jadal tadqiq etilib, ilmiy izlanishlar tadqiqot obyektiga yo'naltirildi. Xususan, zamonaviy IT texnologiyalari yutuqlari va sun'iy intellekt imkoniyatlari orqali deyarli barcha fanlardagi nohiziqli harakat va hodisalarni kishini lol qoldiradigan ajoyib qonunlari ochib berilmoqda. Bular olimlar tasavvurini chiziqli intuisiya va chiziqli dunyoni ko'rish qolipidan ancha uzoqlashtirdi. Shu tarzda sohalararo bilimlar sistemasi – determinasiyalangan sinergetikaning vujudga kelishiga zamin hozirladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Faylasuf B.Turayev - "sinergetik tafakkur kurtaklari insoniyat tarixida, fan tarixida ancha ilgari, odamzod ilk bor tabiat murakkabliklariga to'qnash kelgan va ularni yechish yo'llarini o'ylab topgan bir davrlardayoq shakllangan"ligini[1] qayd etadi. Yerda ong va tafakkur faoliyatidan to jamiyatdagi murakkab sotsial hodisalargacha, evolyutsion hodisalar va hayotning paydo bo'lishi, o'simlik va hayvonot dunyosidagi barcha hatti-harakatlar ham nohiziqli jarayonlarga misol bo'la oladi. Shunday ekan nohiziqli jarayonlarda, tasodifiy tebranish va og'ishlarning ahamiyati katta bo'lib, ular muayyan tizimni tubdan o'zgartirib, butunlay boshqa tizimga aylanishi hamda mazkur tizimda keskin sifatiiy o'zgarish ro'y berishi ayni to'g'ri qayd etilgan ilmiy tadqiqot xulosasidir.

Hozirgi fan yutuqlari va zamonamiz shiddati o'ta keskin, kishilarda nohiziqli, kreativ tafakkur tarzi qo'yidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, sinergetika postnoklassik olam manzarasini yaratdi; ikkinchidan, sinergetika fanlararo metodologiya sifatida juda ko'plab kashfiyotlarga ilmiy asos tashkil qildi; uchinchidan, tizimlarning shakli va atributlaridagi nomutanosibliklar sinergetikada tadqiqot obyektiga muhim asos bo'ladi; to'rtinchidan, fundamental metodologiya sifatida ijtimoiy fanlarda ma'naviy meros va ma'naviyatni tadqiq etishda sinergetika yetarlicha asosga ega.

Dialektik yondashuvdagidek, sinergetik yondashuvda hodisaning birlamchi va ikkilamchi mohiyatidan iborat bo'lmay, hodisani mohiyati, cheksiz iyerarxik tarzda mohiyatlarning ketma-ketligi tarzida davom etuvchi mohiyatlar ansambli va ularning o'zaro aloqadorliklari sistemasi mexanizmlari sifatida namoyon bo'ladi. Shakl va mazmun aloqadorligi dialektikada aks

etganidek “mazmun shaklni belgilaydi” tarzida emas, balki sinergetikada “shakl ham o‘ziga mos mazmunning mujassamlashuviga yo‘l ochadi” tarzida yondashiladi. Imkoniyat va voqelik dialektikasida voqelik imkoniyatning ro‘yobga chiqishi tarzida talqin etilsa, sinergetikada bu qonuniyat voqelikda bo‘lajak imkoniyatlarning mujassamlashuvi vosita sifatida ifodalanadi.

Sinergetikada tizimni chiziqli tafakkur tarzi bilan, oddiy sabab-oqibat asosida tushuntirib bo‘lmaydi, bunda “demokratik” tafakkurga asoslanuvchi nochiziqli tafakkur asosida tushuntirish kerak. Misol tariqasida 2003-yilda nashr etilgan “Zamonaviy tabiatshunoslikda sinergetika”[2] va “Gumanitar fanlar uchun sinergetika”[3] kabi to‘plamlarni ko‘rsatish yetarli bo‘ladi.

Sinergetikaning taraqqiyoti ilmiy tadqiqot fani darajasida rivojlanmoqda. G.Xakenning rejasiga muvofiq sinergetika “metafan” (yunoncha meta – “keyin”, “barcha fanlardan keyingi”) vazifasini bajarishi lozim edi. Ya’ni undagi qonuniyatlar universallik kasb etib, barcha fanlarni “o‘ziniki” hisoblab ulardan foydalanadi.

Falsafiy intellekt — bu insonning borliq, bilish, qadriyatlar va ma’naviy jarayonlar mohiyatini chuqur anglashga qaratilgan tafakkur shaklidir. U nafaqat mantiqiy xulosalar chiqarish, balki tanqidiy, reflektiv va dialektik fikrlashni ham o‘z ichiga oladi.

Falsafiy intellekt quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- Abstraktlik va umumlashtirish qobiliyati — umumiy qonuniyatlarni aniqlash
- Refleksivlik — o‘z fikrini tahlil qilish va qayta ko‘rib chiqish
- Dialektik yondashuv — qarama-qarshiliklar birligi va rivojlanishini anglash
- Ma’naviylik — bilishni axloqiy va qadriy jihatlar bilan bog‘lash

Mazkur intellekt turi insonning dunyoqarashini shakllantiradi va murakkab falsafiy muammolarni hal etishda muhim vosita hisoblanadi.

Sinergetik tafakkur murakkab, ochiq va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizimlarni tushunishga qaratilgan tafakkur modelidir. U tabiiy va ijtimoiy tizimlarda tartib va tartibsizlik o‘rtasidagi dinamik muvozanatni tahlil qiladi.

Sinergetika asoslari Hermann Haken va Ilya Prigogine ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular murakkab tizimlarning o‘z-o‘zidan tartibga kelish (self-organization) xususiyatini ilmiy asoslab bergan.

Sinergetik tafakkur quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

- Nochiziqlilik — jarayonlar oddiy sabab-oqibat munosabatiga bo‘ysunmaydi
- O‘z-o‘zini tashkil etish — tizim ichki imkoniyatlari asosida rivojlanadi
- Fluktuatsiyalar roli — kichik o‘zgarishlar katta natijalarga olib kelishi mumkin
- Ochiklik — tizim tashqi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi

Bu tafakkur modeli global muammolarni, jumladan ekologik, ijtimoiy va texnologik jarayonlarni tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, falsafiy intellekt va sinergetik tafakkur o'zaro uyg'unlashgan holda zamonaviy tafakkurning muhim komponentlarini tashkil etadi. Falsafiy intellekt insonning dunyoqarashini kengaytirsa, sinergetik tafakkur murakkab tizimlarni anglash va boshqarishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois, ularning integratsiyasi zamonaviy ilmiy bilishning yangi bosqichini belgilab beradi. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ayniqsa, ta'lim va innovatsion faoliyatda qo'llash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Muhokama. Nemis fizigi va nazariyotchisi German Xaken o'zini-o'zi tashkil etuvchi tizimlarni "o'ziga xos strukturalarning yoki funksiyalarning tashqi ta'sirlarsiz namoyon qiluvchi tizimlar"[4] sifatida tavsiflab berar ekan, tizimni o'z-o'zini tashkil etish xususiyati, tabiati xilma-xil bo'lgan obyektlarda ham kuzatilishi mumkinligini alohida e'tirof etgan. Tizimda o'z-o'zini tashkil etish jarayonlari ijtimoiy bog'lanishlarni qayta tashkillanishi hamda tizimni tashkil etuvchi elementlar o'rtasida yangi bog'lanishlarning namoyon bo'lishi, mavjud tizimli harakat hisobiga amalga oshadi. Jarayonning maqsadga yo'naltirilganligi, ularning hamkorlikda tabiiy, ichki sabablar oqibatida o'z-o'zidan (spontan) ravishda paydo bo'lish o'zini-o'zi tashkil etish hodisasining alohida xususiyatlari hisoblanadi. Atrof-muhit bilan munosabatlar natijasida yuz beruvchi bunday jarayonlar u yoki bu o'lchamda atrof-muhitga aloqasiz tizimning mustaqilligini belgilaydi.

Ijtimoiy-gumanitar sohada mohiyatiga ko'ra o'zini-o'zi tashkil etish quyidagicha tavsiflanadi:

- o'zining qonuniyatlari bilan muayyan bir o'lchamda yaxlit deb qaralgan predmet va narsalardan yangi mustaqil ijtimoiy obyektga kelish jarayonlari;
- ijtimoiy tizimning harakat faoliyatini muqobil variantda saqlab qolishga intilishi ichki va tashqi ta'sirlarning o'zgarishiga bog'liq jarayonlar;
- avvalgi energiya va ulardan foydalanish hisobiga takomilashib boruvchi va o'zini-o'zi rivojlantiruvchi tizimning holatidir.

"XX-asrning 50-yillaridan boshlab o'zini o'zi tashkil etuvchi tizimlarni tabiiy-ilmiy fanlar doirasida yanada keng o'rganishga kirishildi. Natijada 70-yillarga kelib o'z-o'zini tashkil etish mexanizmlarini o'rganishga boshqa fan sohalari tadqiqotchilarining ham tadqiqot obyektiga aylandi"[5].

Shuni ham qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, o'zini o'zi tashkil etishning sabablari o'zaro hamkorlik, energiya almashinish bilan aloqador bo'lib, aynan hamkorlikdagi harakatlar

hisobiga yangi strukturalar shakllanib boradi. Tizimning ochiqligi, nochiziqiligi, nomuvozanatligi kabi xususiyatlari sinergetikaning asosiy tushunchalarini tashkil etadi. Ochiq tizimlar atrof-muhit bilan o'z tarkibi bo'yicha muntazam modda, energiya va axborot almashinuvda bo'lib, ularda modda, energiya va axborot qabul qilish va uzatish tarmoqlarida shakllanadi.

Fan nuqtai nazaridan yetarli darajada sinalgan klassik uslub va yondashuvlar hamda o'ziga xos nazariyalarni inkor etish orqali bir guruh olimlar tomonidan sinergetik yondashuvni mutlaqlashtirish ko'zga ko'rina boshlandi. Lekin, davr o'tishi bilan sinergetikani insoniyat erishgan barcha boshqa metodologik yondashuvlarga tayangan holda qo'llash samarali natija berishi isbotlana boshlandi.

Sinergetikadagi chiziqililik va nochiziqililik tushunchalari ko'pdan buyon qo'llanilib kelinsada ijtimoiy fanlar doirasida chiziqililik va nochiziqililikni tushunchalarini asoslab berish bir muncha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Chiziqililik va nochiziqililik tushunchalarini ilmiy-sosial mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ba'zi tadqiqotlarda "chiziqililik va nochiziqililik ijtimoiy jarayonlarning dinamik xususiyatlarining klassik (chiziqililik) va postklassik (nochiziqililik) jamiyatshunoslikda ifodalanishidir"[6] deb, ta'rif berilgan. Bunda chiziqililik tushunchasi – ijtimoiy jarayon va hodisalarning belgilangan ma'lum bir muqobilsiz yo'ldan borishi, ijtimoiy jarayonlarning bir yo'nalishdan ekanligi, muayyan siyosiy elita mohiyati, struktura yoki maqsadning muqobilsiz, yakkaholda harakati tushunilgan.

Sinergetikada chiziqili rivojlanish yo'lining asosida yagona va bitta boshlang'ich asos, substansiya yotadi. Falsafadagi bilish nazariyasi aspektida bu asos shunday aksiomalar sistemasi sifatida olinadiki, qaralayotgan obyektning qolgan barcha xossalari ana shu asosdan keltirib chiqariladi. Berilgan asos esa universal, ustuvor hisob sistemasi sifatida qabul qilinadi. Belgilangan element boshqalari bilan butun va qism, sabab va oqibat munosabatida bo'lib, u ularning mavjudligini belgilaydi va ular bu element tufayli o'zining ma'no-mazmuniga va muayyanligiga erishadi.

Natijalar. Olimlarning bir guruhi sinergetikani qalban tan olsalar ham, o'zlari e'tiqod qilib kelgan ta'limotdan voz kechishni xohlamadilar. Undan farqli ravishda, yana bir guruh olimlar sinergetikani dialektikaga qarama-qarshi bo'lmagan, uni ma'lum ma'noda to'ldiruvchi yangi ilmiy paradigma sifatida baholadilar.

Xususan, ayrim tadqiqotlarda dialektika va sinergetika yagona metodologiyaning o'zaro bog'langan, o'xshash ikki shoxobchasi, tarmog'idir. Sinergetika dialektikani konkretlashtiruvchi va uni ma'lum ma'noda to'ldiruvchi ilmiy bilish markazidagi ikkinchi tarmoqdir. Sinergetika

dialektika bilan o‘zaro aloqador hamda umumiy dialektik qonunlar va aniq ilmiy bilimlarni muvofiqlashtiruvchilik vazifasini bajaradi.

Dialektika va sinergetikani birlashtiruvchi substansional tushuncha “energiya” tushunchasi sanaladi. Hozirgi kunda ham sinergetikaga turli xil yondashuvlar mavjud. Ayrimlar sinergetikani “hech bir yangiligi bo‘lmagan soha”, “soxta fan”, “postmodernizmning o‘yinchog‘i” deb uning ahamiyatini noto‘g‘ri baholamoqdalar. Aslida, sinergetika dialektikani inkor etmaydigan “uchinchi mingyillik fani”, “metafan”, “yangi metodologiya”, “universal paradigma”, “postnoklassik tafakkur” sanaladi. Shu munosabat bilan sinergetikaning turli xil talqin etilishiga oid yangicha yondashuvni alohida qayd etib o‘tish lozim: “Sinergetika murakkab xarakterga ega. Chunki unda noilmiy bilimlarni tadqiq etishga doir yondashuvlar ham mavjud. Jumladan, fan taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan hayotiy reallikning mezoni, insonni aqliy qobiliyati, aqli orqali energiya va axborotlarni boshqarish, sun‘iy intellektni boshqarish va talqin qilish, koinotdagi hamfikir do‘stlar bilan aloqa o‘rnatish, g‘ayrushuriy ong, ichki hissiy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va shu kabi boshqa masalalarni kiritish mumkin. Lekin, bundan sinergetikani ilmiylik talablariga javob bermas ekan, degan fikr tug‘ilmasligi kerak”[7].

“Sinergetika ko‘chki shaklidagi rivojlanish hodisasini izohlab berdi. Bularning barchasi beqarorlik va barqarorlik, nochiziqli, kaosni tartiblashtirish, ochiq tizim ya‘ni, turbulentslik qonuniyatlarini namoyon etib, determinizmning yangi tasavvuriy shaklini belgilab beradi”[8].

Ushbu muammoga ilmiy yondashuv sinergetikaga oid turli qomusiy va maxsus nashrlarga kiritilgan ta‘riflarni sinchkovlik bilan tahlil qilishdan boshlanadi. Jumladan shunday ta‘riflardan birida “Sinergetika – muvozanatsiz ochiq tizimlarning atrof-muhit bilan modda, energiya va axborot almashinuv hisobiga vujudga keluvchi struktura elementlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish. Bunday tizimlarda tashkiliy tuzilma elementlarining bir-biri bilan o‘zaro muvofiq munosabatda bo‘lishi va uning natijasida tizimda tartiblilik darajasi ortib borishi, ya‘ni entropiyaning kamayishi kuzatiladi”[9] deb qayd etilgan. Shuningdek, “Sinergetika (yunon. sunergia – hamkorlik, hamjihatlik) –sistemalarning o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish nazariyasi, o‘z-o‘zini boshqarish, hozirgi zamon nazariyasi, nochiziqli hodisalarni o‘rganish, dunyoni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish, tafakkur uslubidir”[10] kabi ta‘riflar berilgan.

Sinergetikada nochiziqlilik eng muhim tushunchalardan biri hisoblanib, bu tushuncha xilma-xil ma‘nolarda talqin etiladi. Umumiy nuqtai nazardan nochiziqlilikni quyidagicha talqin etsa bo‘ladi: hohlagan tizim yoki jarayonni holatini o‘zgartirishi va keyingi rivojlanishni qaysi variantda davom ettirishini oldindan bashorat etib bo‘lmasligi, keyingi taraqqiyot sferalarini

xilma-xilligi, variantlardan birini tanlashni o'ta murakkabligi kabi sifatlar nochiziqilik fenomenini tashkil etadi.

Insoniyatning nochiziqi jarayonlarning o'rganish tarixini ukrainalik olim L.F.Chernogor[11] quyidagi tartibda davrlashtirib tahlil etib bergan:

Birinchi davr naturfalsafa davri bo'lib XVII-XVIII-asrlarga qamrab oladi. Bunda tabiatshunos olimlar nochiziqilik bilan ilk bor to'qnash kelishgan va nochiziqilik ular uchun masalalarni yechishdagi xususiy murakkabliklardan biri sanalangan.

Ikkinchi davr klassik davr davri bo'lib XIX-asrni o'z ichiga olgan. Bu davrda ayrim nochiziqi hodisalarning g'aroyib xossalari kashf etilib, nochiziqi jarayonlar ustida ilk bor tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek bu davrda turli sohalardagi nochiziqi masalalar o'ziga xos deb hisoblangan va individual uslublarda yechilgan. Odatda, nochiziqilik kichik bir masala deb tushunilgan.

Uchinchi, yangi davr - yigirmanchi asrning I-yarmigacha bo'lgan davrdir. Bu davrda asosan nochiziqi tebranishlar nazariyasini ishlab chiqish yakunlangan. Juda ko'p amaliy masalalarning nochiziqi ekanligi anglab yetilgan. Ularni yechmasdan turib yangi texnologiyalarni yaratib bo'lmasligi tan olingan. Nochiziqi til shakllanib, nochiziqi tafakkur vujudga kelgan. Umuman olganda bu davrda nochiziqilik obyektlarning xususiyatlarini tahlil etuvchi davr sifatida qabul qilina boshlandi.

Xulosa. Mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinergetik tafakkur va falsafiy intellekt zamonaviy ilmiy bilishning o'zaro chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Sinergetika murakkab, ochiq va nochiziqi tizimlarning ichki qonuniyatlarini, ularning o'z-o'zini tashkil etish jarayonlarini chuqur anglash imkonini bersa, falsafiy intellekt ushbu jarayonlarni umumlashtirish, mazmunan boyitish va dunyoqarash darajasida talqin qilish vazifasini bajaradi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, tizimlarning ochiqligi, fluktuatsiyalar ta'siri, ichki va tashqi omillarning o'zaro uyg'unligi ularning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Nochiziqilik esa jarayonlarning ko'p variantli, oldindan to'liq bashorat qilib bo'lmaydigan xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Shu bois sinergetik yondashuv murakkab ijtimoiy, ekologik va texnologik muammolarni tahlil qilishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, sinergetika va dialektika o'rtasidagi uyg'unlik ilmiy tafakkurning yangi bosqichini ifodalaydi. Ular qarama-qarshi emas, balki bir-birini boyituvchi yondashuvlar sifatida namoyon bo'lib, murakkab jarayonlarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Ayniqsa,

“energiya”, “o‘z-o‘zini tashkil etish” va “rivojlanish” kabi umumiy tushunchalar ularning integratsiyasini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, sinergetik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi ilm-fan taraqqiyotining muhim bosqichi bo‘lib, u klassik chiziqli yondashuvlardan postnokklassik, ko‘p o‘lchovli va integrativ tafakkurga o‘tishni anglatadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishni yanada chuqur o‘rganish, uni ta‘lim tizimi va innovatsion faoliyatga keng joriy etish ilmiy-amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. Тўраев Б.О., Эргашева М.Х., Раҳмонов Б.У., Мўминова З.О., Очилов Ж. Коллектив монография. Тошкент: “Наврўз”, 2017.
2. Баранцев Р.Г. Синергетика в современном естествознании. М.: Едиториал УРСС, 2003. 144 с.
3. Синергетика для гуманитариев: учеб. пособие для вузов / Л.А.Мосионжник; Высш. антропол. шк. - СПб.: Нестор-История; Кишинев: Высш. антропол. шк., 2003. – 153 с.
4. Хакен Г. Синергетика: Иерархии неустойчивостей в самооргани-зующихся системах и устройствах: Пер. с англ. – М.: Мир, 1985. – 423 с.
5. Шевелева С.С. Открытая модель образования (синергетический подход). – М.: Магистр, 1997. – 48 с.
6. М.С.Белоковьяльский. Линейность и нелинейность. Современный философский словарь. под общ. Ред. Кемеров В.Е. (ред.) 4-е изд. испр. и доп. - Москва: Академический Проект, 2020, 823 с.;
7. Бозоров Д. Синергетиканинг тарихий-фалсафий негизлари. // Фалсафий кадрятларнинг мустақил Ўзбекистон тараққиётидаги ўрни. Республика илмий-амалий анжумани материллари. – Т., 2011.
8. Буданов В.Г. Синергетическая методология // Вопросы философии. 2006. № 5.- С. 79–94.
9. Пляцук Л. Д. Синергетика: нелинейные процессы в экологии: монография/ Л. Д. Пляцук, Е. Ю. Черныш. – Сумы: Сумский государственный университет, 2016. – 229 с.
10. Шаронин Ю.В. Психолого-педагогические основы формирования качеств творческой личности в системе непрерывного образования: (Синергетический подход). – М.: МГИУ, 1998. – 321 с.
11. Черногор Л.Ф. Нелинейная радиофизика: учебник / Л. Ф. Черногор. – 3-е изд., доп. и испр. – Х: ХНУ имени В.Н.Каразина, 2015. – 204 с.

12. Mustafayev J.Sh. Tabiiy intellekt va shaxsiyat masalasi: psixofiziologik va sinergetik tahlil//, “Tamaddun nuri”, Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 2025-yil, 10-son (73), ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691

13. Mustafayev J.Sh. Progressive-ontogenetic properties of artificial and natural intelligence// Sciantal Journal of Education Humanities and Social Sciences, Vol. 3. 10, (2025), ISSN Online: 2961-0389, Website: <https://www.sciantaljournals.com/index.php/SJEHSS/index>, Submitted: August 03, 2025/ Accepted October 08, 2025/ Published October 16, 2025. – P.40-46.

14. Mustafayev J.Sh. Artificial Intelligence And Social Life Determinism // Open Academia: Journal of Scholarly Research. Volume 3, Issue 10, October, 2025. ISSN (E): 2810-6377, Website: <https://academiaone.org/index.php/4>, -P. 11-16. \

15. Mustafayev J.Sh. Shaxs aql-idroki va sun’iy intellekt dialektikasi // BERDAQ nomidagi qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. Issn 2010-9075 № 2 (69) нуқус-2025.

16. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.